

**O‘QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING
NAZARIY-METODIK ASOSLARI
(BOSHLANG‘ICH SINIF ONA TILI DARSLARI MISOLIDA)**

Navruzova Muyassar Gaybullayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Osiyo xalqaro universiteti dotsenti.

Kadirova Muqaddas Boltayevna

Osiyo xalqaro universiteti.

70110401- Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

MM2-BT-24-guruh magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15492395>

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish masalasi nazariy va metodik jihatdan yoritilgan. Xususan, ona tili darslari misolida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, tasavvuri va nutqiy faolligini oshirishga xizmat qiluvchi samarali usullar tahlil qilinadi. Ijodkorlikni rivojlantirishda darsning mazmuni, metodikasi hamda o'qituvchining yondashuvi muhim omillar sifatida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: ijodiy qobiliyat, boshlang'ich ta'lim, ona tili darsi, metodika, mustaqil fikrlash, o'qituvchining roli, ta'lim mazmuni.

**THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPING
STUDENTS' CREATIVE ABILITIES
(ON THE EXAMPLE OF PRIMARY SCHOOL MOTHER TONGUE LESSONS)**

Abstract. This article explores the theoretical and methodological foundations of developing creative abilities in primary school students. Using native language (mother tongue) lessons as a case study, it examines effective strategies that enhance students' imagination, independent thinking, and verbal activity. The study highlights the importance of lesson content, teaching methods, and the teacher's role in fostering creativity.

Key words: creative ability, primary education, mother tongue lesson, methodology, independent thinking, teacher's role, educational content

**ТЕОРЕТИКО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ
СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ
(НА ПРИМЕРЕ УРОКОВ РОДНОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ)**

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и методические основы развития творческих способностей у учащихся начальных классов. На примере уроков родного языка анализируются эффективные методы, способствующие формированию воображения, самостоятельного мышления и речевой активности.

Отмечается значимость содержания урока, методики преподавания и роли учителя в развитии креативности.

Ключевые слова: творческие способности, начальное образование, урок родного языка, методика, самостоятельное мышление, роль учителя, содержание образования.

Kirish. Zamonaviy ta'limning eng muhim vazifalaridan biri bu – o'quvchilarning shaxsiy salohiyatini, xususan, ijodiy qobiliyatlarini erta bosqichdayoq aniqlash va rivojlantirishdir.

Boshlang'ich ta'lim bu jarayonda hal qiluvchi bosqich bo'lib, o'quvchining intellektual, ijtimoiy va axloqiy shakllanishida asosiy rol o'ynaydi.[1] Ijodkorlik – bu insonning mustaqil, noan'anaviy, moslashuvchan fikrlay olishi, yangilik yaratishga bo'lgan intilishidir. Bu qobiliyat har bir bolada tug'ma tarzda mavjud bo'lsa-da, uni rivojlantirish uchun to'g'ri ta'limiy muhit, samarali metodlar va individual yondashuv zarur. Psixolog va pedagog olimlar, jumladan, L.S. Vygotskiy, J. Guilford, M. Runko tadqiqotlarida ijodkorlik tafakkur bilan uzviy bog'liq bo'lib, u bolaning so'z boyligi, ifoda qilish qobiliyati, tasavvuri orqali namoyon bo'lishi ta'kidlangan. Shu bois, ona tili darslari bu qobiliyatni rivojlantirishda eng qulay fanlardan biri hisoblanadi. Til vositasida bola o'z ichki kechinmalarini, tasavvurlarini, kuzatuvlarini erkin ifoda etadi. Yangi O'zbekiston sharoitida o'quvchilarning tafakkurini kengaytirish, ijodiylik va erkin fikrlashini rag'batlantirish davlat ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Farzandlarimiz zamonaviy bilimlar bilan birga, chuqur tafakkur, mustaqil fikr va ijodiy qarashga ega bo'lishi kerak".[2] Ushbu maqola aynan boshlang'ich sinf o'quvchilari misolida ijodiy qobiliyatni rivojlantirishning nazariy va metodik asoslarini tahlil qilish, amaliy tavsiyalar ishlab chiqish, darsda qo'llanilishi mumkin bo'lgan ijodiy mashqlar va yondashuvlarni tavsiflashni maqsad qilgan. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari ko'rib chiqiladi. Xususan, maqolada ijodiy fikrlash tushunchasi, uning psixologik xususiyatlari, boshlang'ich sinfda ijodiy faoliyatni tashkil etishning samarali usullari, ona tili darslarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan metodik yondashuvlar tahlil qilinadi. Maqola quyidagi ilmiy vazifalarni hal etishga qaratilgan:

- Ijodiy qobiliyat va ijodiy fikrlash tushunchalarining nazariy asoslarini o'rganish
- Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy salohiyatni shakllantirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash;
- Ona tili darslarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan metodik vositalarni tizimlashtirish;
- O'qituvchining ijodiy yondashuvi va ta'lim muhiti yaratishdagi rolini aniqlash;
- Ilg'or tajriba va amaliy mashg'ulotlar orqali o'quvchilarning ijodkorlik darajasini oshirish yo'llarini asoslash.

Mazkur izlanish nazariy tahlil va metodik tajriba asosida olib boriladi. Tadqiqot natijalari boshlang'ich ta'limda ona tili darslarining ijodiylikni shakllantirishdagi o'rnini belgilash, metodik qo'llanmalar va dars ishlanmalari ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Asosiy Qism. Ijodiy fikrlash – bu mavjud bilimlar asosida yangi g'oyalar, qarashlar yoki echimlar yaratish jarayonidir. U nafaqat san'atga oid sohalarda, balki barcha hayotiy vaziyatlarda, ayniqsa, muammoli holatlarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixologiyada ijodkorlik tafakkurning yuqori bosqichi sifatida ko'riladi. Amerikalik tadqiqotchi Guilford ijodiy fikrlashni divergent (yoyilgan) fikrlash deb atab, uni tezkorlik, moslashuvchanlik, original yechim topish kabi komponentlarga ajratgan[3].

Ta'lim jarayonida ijodkorlikni rivojlantirish — bu faqatgina maxsus iqtidorli bolalar bilan bog'liq bo'lgan tushuncha emas. Har bir bola ma'lum darajada ijodiy salohiyatga ega. Pedagogik nuqtayi nazardan, bu salohiyatni erta bosqichda aniqlab, uni rag'batlantirish va tarbiyalash mumkin va zarurdir. Zamonaviy ta'lim konsepsiyasi ijodkorlikni asosiy kompetensiyalar tarkibiga kiritgan.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Ilm-fan va innovatsiyani rivojlantirish strategiyasi"da ham o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv va ijodiy tafakkurni shakllantirish muhim yo'nalish sifatida belgilangan[4]. Ijodiy fikrlashni rivojlantirish orqali o'quvchi o'z bilimini amaliyotda qo'llashni, yangicha yondashishni va muqobil echimlar topishni o'rganadi. Bu esa nafaqat bilimni yod olishga emas, balki uni tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish, ifodalashga asoslanadi. Shunday ekan, ta'lim jarayonida ijodiylikni qo'llab-quvvatlovchi muhit va metodika alohida ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari (7–10 yosh) psixologik rivojlanish nuqtai nazaridan o'ziga xos davrni bosib o'tadilar. Bu davrda tasavvur, obrazli fikrlash, eslab qolish, diqqatni jamlash kabi asosiy kognitiv jarayonlar jadallashadi. Shuningdek, bu yosh davrida bolaning ijodiy salohiyati eng faol rivojlanadigan bosqich hisoblanadi. Vygotskiy fikriga ko'ra, bola tasavvur orqali real voqelikni yangidan yaratishga, uni o'zicha qayta ishlashga qodir bo'ladi. Ijodiy faoliyat bu yoshda o'yin, rasm chizish, so'z bilan ishlash, hikoya to'qish kabi shakllarda namoyon bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchi bolaning psixologik ehtiyojlarini hisobga olgan holda, uni quvnoq, erkin va ochiq muhitda ijodga jalb etishi lozim. Bundan tashqari, bu yoshdagi bolalar uchun tan olinish, rag'bat, qiziqarli faoliyatlar juda muhimdir. Agar o'quvchi o'z g'oyalarini erkin ifoda eta olsa, uning o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi va bu ijodkorlik uchun tabiiy poydevorga aylanadi. Ona tili – bu bola uchun nafaqat aloqa vositasi, balki tafakkur va dunyoqarashni ifodalovchi asosiy vositadir. Dars jarayonida matnlar tahlili, hikoya tuzish, insho yozish, so'z boyligini oshirish kabi faoliyatlar ijodiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli ona tili darslari ijodiy yondashuvlar uchun eng samarali platformalardan biridir.

Boshlang'ich sinflardagi ona tili darslari faqat grammatik bilimlarni emas, balki bolalarning estetik didi, ifodali nutqi, kuzatuvchanligi, tasvirlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilishi lozim. Masalan, "Tasvirlab ber" yoki "Tugallanmagan hikoyani davom ettir" kabi topshiriqlar orqali o'quvchi o'z tasavvurini so'z bilan ifoda etishga o'rganadi[9]. Yana bir muhim jihat — o'qituvchi darsni qanday tashkil qilishi. Agar darsda ochiq savollar, erkin munozaralar, jamoaviy ishlanmalar ko'p bo'lsa, o'quvchi o'z g'oyasini erkin aytadi, taklif qiladi, bu esa ijodiy yondashuvga olib keladi. Shuningdek, ilg'or xorijiy tajribalar ham shuni ko'rsatmoqdaki, ona tili asosida ijodiy tafakkurni shakllantirish natijalari boshqa fanlardagi muvaffaqiyatlarga ham bevosita ta'sir qiladi.

Ijodiy fikrlashni shakllantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan dars metodikasi muhim o'rin tutadi. Bu metodika o'quvchining tafakkurini faollashtirish, uning tasavvurini kengaytirish va o'z g'oyalarini erkin ifoda eta olishiga imkon yaratishga qaratilgan bo'lishi kerak. An'anaviy yodlashga asoslangan darslar o'rniga, tanqidiy va ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi topshiriqlar asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarni mustaqil qaror qabul qilishga, turli nuqtai nazarlarga ochiq bo'lishga o'rgatadi. Pedagogik tajribalar shuni ko'rsatadiki, ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar orqali o'quvchilar nafaqat til boyligini, balki obrazli tafakkur, kontekstda o'ylash, matn asosida yangi mazmun yaratish, xulosalash, tahlil qilish ko'nikmalarini ham egallaydi.[7] Bu kabi topshiriqlar, masalan, tugallanmagan hikoyani davom ettirish, mavzudan kelib chiqqan holda yangi ssenariy yozish, ifodali fikrlar orqali o'z nuqtai nazarini himoya qilish kabi shakllarda berilishi mumkin.

Bunday yondashuvlar bilan o'tilgan darslarda o'quvchi passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida o'z fikrini shakllantirish va bayon qilish jarayonida doimiy harakatda bo'ladi.

Shuningdek, o'quvchilarning tahliliy va baholovchi fikrlash malakalari rivojlanadi.

Darsni tashkil etishda faol ta'lim metodlariga asoslanish, xususan, munozaraviy metodlar, rolli mashg'ulotlar, savol-javoblar va tahliliy turlar ijodiy fikrlashni tabiiy tarzda shakllantirishga xizmat qiladi[9]. Ayrim ta'lim tizimlarida keng qo'llanilayotgan Bloom taksonomiyasiga asoslangan topshiriqlar ijodiylikni bosqichma-bosqich shakllantirishga imkon beradi. Unga ko'ra, o'quvchining bilimi avval tushunish, so'ngra qo'llash, tahlil, sintez va nihoyat baholash bosqichlari orqali rivojlanadi. Ushbu yondashuv ijodiy fikrning chuqurligini ta'minlaydi[4].

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida ijodiylikni rivojlantirishga qaratilgan amaliy mashqlar va topshiriqlar o'quvchilarning nutq faolligini, tasavvuri va ifodali fikrlashini kuchaytiradi. Tajriba asosida aniqlanishicha, dars davomida tugallanmagan matnni davom ettirish, hikoya asosida yangi ssenariy yaratish, muayyan so'zdan ko'plab gaplar tuzish, so'z asosida ifodali fikrlar yozish kabi topshiriqlar o'quvchining tasavvurini boyitadi va nutqiy salohiyatini kengaytiradi. Bunday mashqlar orqali o'quvchi fikrini erkin ifoda qilish, voqealarni bog'lash, o'z tasavvuridagi obrazlarni so'z bilan aks ettirish kabi malakalarni egallaydi. Guruhli ishlarda esa o'quvchilarning ijtimoiylashuv darajasi oshadi, o'zaro fikr almashish, bahs-munozarada qatnashish, tengdoshlar fikriga hurmat bilan qarash kabi ko'nikmalar shakllanadi.

Bu esa ijodiylikning bir bo'lagi bo'lgan kommunikativ kompetensiyalarning rivojiga xizmat qiladi. Suhbat mashg'ulotlari, erkin munozaralar yoki bahsli savollar asosida tashkil etilgan darslar esa bolalarda mustaqil fikrlashga, dalillashga va o'z nuqtai nazarini asoslashga imkon yaratadi. O'qituvchi tomonidan berilgan ochiq turdagi savollar o'quvchini o'ylashga, analiz qilishga, ilgari surilgan fikrlarga o'zcha munosabat bildirishga undaydi. Bu uslubda tashkil etilgan darslar o'quvchilarni faollashtiribgina qolmay, balki ijodiy salohiyatining ochilishini ham rag'batlantiradi[11]. Ijodiylikni rivojlantirishda o'qituvchi hal qiluvchi shaxsdir.

U nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchining ijodiy qobiliyatlarini aniqlovchi, rag'batlantiruvchi va yo'naltiruvchi rolini bajaradi. O'qituvchi o'z darsini oddiy, yodlovchi va passiv shaklda emas, balki fikrlovchi, bahslashuvchi, izlovchi sharoitda tashkil qilsa, o'quvchi ham o'zini erkin tutadi, fikrini ochiq ayta oladi va ijodiy yondasha boshlaydi. Shuningdek, darsda qulay psixologik muhit yaratish, o'quvchining fikrini baholamasdan, uni rag'batlantirish, har qanday g'oyani qadrlash orqali bolaning o'ziga ishonchini oshirish mumkin. Bunday muhitda bola o'z g'oyasini aytyshdan qo'rqmaydi, aksincha, har doim yangi fikr topishga harakat qiladi. Bu esa ijodiy salohiyatning kuchayishiga xizmat qiladi.

O'qituvchining ijodiy yondashuvi – bu uning metodik vositalarni yangilab borishi, o'quvchilarning qiziqishlariga moslab dars jarayonini tashkil etishi, turli materiallardan foydalanib, darsni jonlantira olishi bilan belgilanadi. Xususan, badiiy matnlar asosida muhokamalar, dramatizatsiya ishlari, rolli o'yinlar o'quvchilarning ijodkorlik darajasini oshiradi[5]. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, ijodiy muhit mavjud bo'lgan sinflarda o'quvchilarning mustaqil fikr, tahliliy qarash, obrazli tafakkur va nutq madaniyati yuqori darajada shakllanadi. Shu bois ijodiy o'qituvchi — ijodkor shaxslarni tarbiyalaydi, degan tamoyil pedagogik faoliyatning bosh g'oyalardan biri bo'lib qolmoqda.

Xulosa. Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish zamonaviy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada ko'rib chiqilgan nazariy va metodik asoslar shuni ko'rsatadiki, har bir bolaning ichki salohiyatini aniqlash va to'g'ri yo'naltirish orqali uni ijodiy faoliyatga jalb etish mumkin va zarur. Ijodiy fikrlashning tabiati, u bilan bog'liq psixologik jarayonlar, shuningdek, ta'limda samarali metodlarning ahamiyati bugungi o'qituvchining nazaridan chetda qolmasligi lozim. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, ona tili darslari o'quvchilarda ijodiy tafakkur, ifodali nutq, mustaqil fikr, tahliliy yondashuv kabi muhim kompetensiyalarni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Xususan, erkin yozuv, matn asosida fikr bildirish, dramatik ifoda, guruhli ishlar, munozara va rolli o'yinlar o'quvchilarning ijodiy salohiyatini faollashtirishda samarali bo'lib chiqmoqda. Maqolada ta'kidlanganidek, ijodiy muhit yaratish, o'quvchilarni erkin fikr aytishga undash, ularning g'oyalarini qadrlash, o'qituvchining doimiy izlanishda bo'lishi va zamonaviy metodik yondashuvlarni joriy etishi ijodiy fikrlashni shakllantirishda asosiy shartlardan hisoblanadi. Pedagogik amaliyotda ijodkor o'qituvchi — ijodkor avlodni tarbiyalaydi, degan tamoyil o'z isbotini topmoqda. Shunday qilib, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ayniqsa, boshlang'ich ta'limda, keng qamrovli yondashuvni talab etadi. Ta'lim jarayonida o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, samarali metod va vositalar orqali ijodkorlikni rag'batlantirish bugungi pedagogik faoliyatning asosiy mezonini bo'lib qolmoqda.

REFERENCES

1. Navruzova, M. (2023). ОЦЕНКА В ШКОЛАХ РАЗНЫХ СТРАН: ОБЩЕЕ И РАЗЛИЧИЕ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 28(28).
2. Navruzova, M. (2023). HUSNIXAT DARSLARIDA TA'LIMIY O'YINLARDAN SAMARALI FOYDALANISH. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 28(28).
3. Navruzova, M. (2023). INSON TANA A'ZOLARI ISHTIROK ETGAN MAQOLLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 28(28).
4. Gaybullayevna, N. M. (2023). LINGUOPOETIC INTERPRETATION OF MEDICAL UNITS IN EXAMPLES OF UZBEK FOLKLORE. *Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education*, 2(6), 317-325.
5. Navruzova, M. (2023). TIBBIY BIRLIKLAR VA ULARDA TILNING GENDER IFODASI. *Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения*, 2(8), 50-53.
6. Navruzova, M. (2023). ON LEXICAL CHARACTERISTICS OF EUPHEMISMS AS MEDICAL LINGUISTIC UNITS. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 43(43).
7. Navruzova, M. (2023). TIBBIY BIRLIKLARNING LEKSIK QAMROVI VA ULARNING XALQ JONLI TILI BILAN BOG'LIQLIGI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 43(43).
8. Navruzova, M. (2023). TIBBIY BIRLIKLARNING FOLKLOR ASARLARIDAGI GENDEROLOGIK TAVSIFI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 43(43).

9. Navruzova, M. (2023). "FOLKLOR TILI" TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHİYATI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 43(43).
10. Navruzova, M. G. (2024). EUPHEMISMS AND THEIR CONTENT. *YOUTH, SCIENCE, EDUCATION: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS*, 3(1), 52-62.
11. Наврузова, М. (2022). ТИББИЁТ СОҲАСИДА ЎЗБЕК ТИЛИ. *Innovations in Technology and Science Education*, 1(5), 177-182.
12. Muyassar, N. (2022). TIBBIYOT OLAMIDA MULOQOT MADANIYATI. *Innovations in Technology and Science Education*, 1(5), 183-187.
13. Navruzova, M. (2023). MILLIY VA DINIY QADRIYATLAR ASOSIDA TA'LIMDA TIBBIY MULOQOT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 28(28).
14. Navruzova, M. (2021). TIBBIY BIRLIKLAR ASOSIDA SHAKLLANGAN TOPONIMLAR: TIBBIY BIRLIKLAR ASOSIDA SHAKLLANGAN TOPONIMLAR. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 4(9).
15. Наврузова, М. Г. (2022). ЎЗБЕК ТИЛИДА ТИББИЙ БИРЛИКЛАРНИНГ ЛИНГВОМАДАНИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ. *Scientific Impulse*, 1(5), 788-796.
16. Navruzova, M. (2023). ЎЗБЕК ТИЛИДА ТИББИЙ ЭВФЕМИЗМЛАРНИНГ ЛИНГВИСТИК ХУСУСИЯТЛАРИ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 28(28).
17. Navruzova, M. (2023). НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ УСЛУГ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 28(28).
18. Navruzova, M. (2023). Тиббий бирликлар тадқиқи. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 28(28).
19. Navruzova, M. (2023). TIBBIY TERMINLAR HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 28(28).
20. Navruzova, M. (2022). MAQOLLARDA-SOMATIK BIRLIKLAR. *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, 1(28), 257-265.
21. Navruzova, M. (2023). ТИББИЁТ ВА ТЕРМИНОЛОГИЯ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 27(27).
22. Navruzova, M. (2023). О 'ЗБЕК ХАЛҚ МАҚОЛЛАРИДА ТИББИЙ БИРЛИКЛАРИНИНГ ҚО 'ЛЛАНИЛИШИНИ КОРПУС ВОСИТАСИДА ТАДҚИҚ ЕТИШ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 28(28).
23. Gaybullaevna, N. M. (2021). LINGUCULTUROLOGICAL PROPERTIES OF MEDICAL UNITS OF UZBEK LANGUAGE. *Journal of Contemporary Issues in Business & Government*, 27(4).
24. Gaybullaevna, N. M. (2021). LINGUCULTUROLOGICAL PROPERTIES OF MEDICAL UNITS OF UZBEK. *Journal of Contemporary Issues in Business and Government Vol*, 27(4).
25. Navruzova, M. (2023). ТИББИЙ ТЕРМИНЛАРНИНГ ШАКЛЛАНИШ АСОСЛАРИ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 28(28).
26. Gaybullaevna, N. M. Etymology of Uzbek Medical Terms. *JournalNX*, 7(06), 169-171.

27. Gaybullaevna, N. M. (2021). Fundamentals of medical termsformation in uzbek language. *Middle European Scientific Bulletin*, 12, 488-491.
28. Navrozova, M. G. (2021). XALQONA TIBBIY BIRLIKLARDA MANO KOCHISH USULLARI. *Academic research in educational sciences*, 2(CSPI conference 1), 1487-1491.
29. Наврузова, М. Г. (2020). Креативность педагога-условие инновационности его профессиональной деятельности. *Вопросы науки и образования*, (11 (95)), 109-111.
30. Navruzova, M. (2023). Lexical-semantical features of some medical linguistic units. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 28(28